

J A R A Yo N Ko'p qavatli uy-joylar qurilishi



J A R A Yo N

Ko'p qavatli uy-joylar qurilishi

Barcha narsa inson va uning manfaatlariga qaratilgan mamlakatimizda aholi turmush farovonligini oshirish, ularga munosib shart-sharoitlar yaratib berish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridandir. Binoan, bu yo'nalishda Sux tumanida ham amaliy ishlar olib borilmoqda.

2020-2021 yillarda Farg'ona viloyatining So'x tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari dasturining 35-bandiga asosan tuman markazida Rovon shahar bosh rejasiga muvofiq har biri 30 xonadonli 7 ta 5 qavatli uy-joylar qurib, foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan. Ushbu maqsadga davlatimiz tomonidan 28 mlrd. so'm mablag' yo'naltiriladi.

B U G U N

Navobod mahalla fuqarolar yig'ini hududiga 4 ta, Devayron mahalla fuqarolar yig'ini hududiga 2 ta hamda Chashma mahalla fuqarolar yig'ini hududiga 1 ta ko'p qavatli uylarning qurilishi boshlab yuborilgan. Ta'kidlash joyizki, barcha ko'p qavatli uylar qurilishi tumanda faoliyat olib borayotgan qurilish firmalariga birlashtirilgan. Ayni kunda qurilish ishlari "Binokori Mohir" mas'uliyati cheklangan jamiyati, "Hazratulloh" xususiy korxonasi, "So'x arslon ekspres invest" mas'uliyati cheklangan jamiyati, "STROYBILDING" mas'uliyati cheklangan jamiyati, "Mirzoqurbon" ishlab chiqarish savdo firmasi va "Soxtmonchii mohiri Suxzamin" xususiy korxonasi ishchi-xodimlari tomonidan olib borilayotir.

Sux tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-09-19 17:04:14